

TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ROLI

Orifjonova Ibodatxon Tolibjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, talaba

Elektron pochta manzili: ibodatxonorifjonova44@gmail.com

Mobil raqami: +998-88-009-05-97

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18333732>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining tutgan o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada sun'iy intellekt asosida ishlovchi ta'lim platformalari, baholash tizimlari va masofaviy ta'lim jarayonidagi imkoniyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sifatini oshirishdagi roli, o'quvchilar bilimini individuallashtirishdagi ahamiyati hamda ularni joriy etishda uchraydigan muammolar haqida fikr yuritilgan. Mazkur maqola talaba va yosh tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, zamonaviy ta'lim, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim, ta'lim sifati, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, raqobatbardosh.

Bugungi kunda fan va texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining rivoji ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi zamonaviy ta'limni sun'iy intellektsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini yanada qulay, samarali va tushunarli qilishga xizmat qilmoqda. Sun'iy intellekt orqali boshqariladigan turli xil texnologik qurilmalar sonining ko'payishi nafaqat insonlar hayotini yengillashtirmoqda, balki o'quvchilarning zamonaviy usulda tahsil olishlari uchun ham ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda.

Sun'iy intellekt — bu inson aql-idrokiga xos bo'lgan fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini kompyuter texnologiyalari orqali amalga oshirishdir. Ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi va o'qituvchilarning ishlarini samaraliroq qiladi. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Asosiy qism

Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari o'quv jarayonini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari va o'zlashtirish tezligi aniqlanadi. Natijada har bir o'quvchi uchun alohida, ya'ni individual o'quv rejasi tuzish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa o'quvchi bilan alohida ishlash, uning vaqt taqsimotidan to'g'ri foydalanish



ya'ni keraksiz ma'lumotlarga emas, o'zlashtirmagan yangi narsalarini o'rganishga qaratib vaqtini tejash va uning xatolarini yanada chuqurroq tahlil qilish bilan bir qatorda o'quvchining ijodiy salohiyati va tarbiyaviy ishlariga ham ko'proq e'tibor qaratishga yordam beradi.

Masalan, sun'iy intellekt asosidagi o'quv dasturlari o'quvchining qaysi mavzuda qiynalayotganini aniqlab, unga mos qo'shimcha materiallar taqdim etadi, bu esa bilimlarning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. An'anaviy ta'limda esa bunday imkoniyatlar cheklangan bo'lib, darslar belgilangan reja asosida olib boriladi. Natijada o'quvchi ayrim mavzularni to'liq o'zlashtirib ulgurmagan bo'lsa ham, keyingi mavzularga o'tilib ketilishi ehtimoli mavjud. Mavzularning yetarlicha chuqur tahlil qilinmasligi esa bilimlarni uzoq muddatga mustahkamlab olish ko'nikmalarining to'liq shakllanmasligiga hamda bilimlarning yuzaki ravishda o'zlashtirilishiga olib keladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim jihati — baholash jarayonini avtomatlashtirishdir. Bugungi kunda test va topshiriqlarni avtomatik tekshiradigan, natijalarni tez va aniq chiqarib beradigan texnologik tizimlar keng qo'llanilmoqda. Bu holat baholashdagi xatoliklarni kamaytiradi va shaffoflikni ta'minlaydi. Bu o'qituvchilarga katta yordam beradi, chunki ular odatda ko'p vaqtini testlarni tekshirish va natijalarni yig'ishga sarflaydilar. Sun'iy intellekt bu jarayonni avtomatlashtirishi bilan o'qituvchilar ish yukini kamaytiradi va natijada ular ko'proq dars tayyorlash, o'quvchilar bilan individual ishlash yoki o'zlarining shaxsiy ijodiy mashg'ulotlarga vaqt ajrata oladilar.

Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida plagiatni aniqlash va topshiriqlarning talabalar tomonidan mustaqil ravishda bajarilganligi yoki internet tarmoqlaridan ko'chirilganligini tekshirish imkoniyati ham mavjud. Bu jarayon o'qituvchilar uchun katta yordam bo'lib, ular har bir ishni alohida tekshirish uchun ortiqcha vaqt sarflashdan xalos bo'lishadi. Shu bilan birga, talabalar orasida ilmiy shaffoflikni ta'minlash va har bir o'quvchining o'z bilimlari va ko'nikmalariga tayangan holda ishlashini rag'batlantirish imkonini yaratadi. Natijada, o'quvchilar o'z bilimlarini chinakam mustahkamlashga harakat qiladi, ilmiy ishlarda halollik va mas'uliyat hissi rivojlanadi. Shu tariqa, sun'iy intellekt nafaqat o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi, balki ta'lim jarayonini adolatli va samarali qilishda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim shakli ayniqsa so'nggi yillarda keng rivojlandi. Ushbu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Onlayn platformalar, virtual o'qituvchilar va aqlli yordamchi dasturlar orqali talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa



ta'lim sifatini tubdan yangilash, talabalarning bo'sh vaqtini uzaytirish va internet tarmoqlaridan mukammal darajada foydalanish imkoniyatini yaratib bermoqda.

Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, sun'iy intellekt masofaviy ta'lim jarayonida talabalarni kuzatib boradi, ularning faolligini tahlil qiladi va bilim darajasiga mos topshiriqlar beradi. Bu esa masofaviy ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda talabalarning ilmiy darajasida bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga yordam beradi. O'quvchilar onlayn ya'ni masofaviy ta'lim jarayonidan nafaqat o'qituvchilar tomonidan balki sun'iy intellekt tomonidan ham qattiq kuzatuv ostida bo'lishlari sababli o'zlariga mos bo'lgan darajadagi qo'llanma va dars mashg'ulotlarini internet tarmoqlaridan foydalangan holda bemalol topishlari mumkin. Bu esa an'anaviy tarzda tahsil olayotgan talabalardan ko'ra ko'proq ilmiy-onlayn materiallarga ega bo'lish imkoniyati desak ham bo'laveradi. Va shuni ta'kidlash joizki, onlayn tahsil olayotgan o'quvchilarning internet tarmoqlaridan oqilona foydalanishlarni ham sun'iy intellekt orqali nazorat qilib turish imkoniyati yo'q emas.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik jihozlarning yetishmasligi, internet tezligining pastligi va o'qituvchilarning raqamli bilimlarining kamligi shular jumlasidandir. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash masalalariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Agar yuqorida keltirib o'tilgan tartib-qoidalariga amal qilinmasa, sun'iy intellekt inson hayotiga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi oqibatida ta'lim tizimi yanada samarali va mukammal bo'lishi kutilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'zlarining qaysi mavzularda qiynalayotganini aniqlashlari va kerakli qo'shimcha materiallarni olishlari mumkin, bu esa bilimlarning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Agar insonlar sun'iy intellektdan oqilona va to'g'ri foydalansa, kelajak avlodning bilim darajasi barqaror saqlanadi. Shu bilan birga, yoshlarning internetda ortiqcha vaqt sarflashini nazorat qilish imkoniyati ham oshadi, bu esa ularning o'qish va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, sun'iy intellekt ta'limni nafaqat mukammallashtiradi, balki o'quvchilarni samarali va ongli o'rganishga yo'naltirishda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni juda muhimdir. Ular ta'lim sifatini oshirish, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishda katta yordam





beradi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan to'g'ri va oqilona foydalanish orqali zamonaviy, raqobatbardosh va bilimli mutaxassislarni tayyorlash mumkin..

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev, A. A. Sun'iy intellekt asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellektning-ta-limdagi-ahamiyati/viewer>
3. Karimov, S. S. Raqamli ta'lim va innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
4. Ismoilov, M. X. Zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari. // Ta'lim va innovatsiyalar ilmiy jurnali, 2022, №3, 45–49-betlar.
5. Rahmonov, D. A. Masofaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni. // Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 2021, №2, 30–35-betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti. — <https://edu.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi rasmiy sayti. — <https://innovation.gov.uz>
8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. Raqamli ta'lim bo'yicha maqolalar to'plami. — <https://uza.uz>
9. Ziyonet ta'lim portali. Sun'iy intellekt va ta'limga oid materiallar. — <https://ziyonet.uz>

